



UDK: 372.881.1

Hafiza RADJABOVA,
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Xorijiy tillar markazi boshlig'i
E-mail: radjabovahafiza@gmail.com

O'zDJTU pofessori, f.f.d. D.Bahronova taqrizi asosida

XAVFSIZ TURIZMNI TA'MINLASH SOHASI TERMINOLOGIYASIDA ABBREVIATURALAR TADQIQI

Аннотация

Maqolada xavfsiz turizmni ta'minlash sohasi terminologiyasida qo'llaniladigan abbreviaturalar, ularning qisqartirish usullari orqali guruhlariga bo'linishi, ulardan foydalanishda qulaylik bilan bir qatorda tushunmovchiliklarning ham paydo bo'lishiga oid tahlillar amalga oshirilgan. Bundan tashqari, tilshunos olimlarning terminologiya va abbreviaturaga oid qarashlari tahlil qilinib, fikrlar umumlashtirilgan va xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Abbreviatura, initials abbreviatura, akronimlar, termin, terminologiya, ko'p komponentli so'zlar.

ИЗУЧЕНИЕ СОКРАЩЕНИЙ В ТЕРМИНОЛОГИИ БЕЗОПАСНОГО ТУРИЗМА

Аннотация

В статье проанализированы аббревиатуры, используемые в терминологии сферы безопасного туризма, их разделение на группы по способам сокращения, а также удобство их использования, а также возникновение недоразумений. Кроме того, анализируются мнения лингвистов относительно терминологии и сокращений, обобщаются мнения и даются выводы.

Ключевые слова: Аббревиатура, инициальная аббревиатура, акронимы, термин, терминология, многокомпонентные слова.

STUDY OF ABBREVIATIONS IN SAFE TOURISM TERMINOLOGY

Annotation

The article analyzes the abbreviations used in the terminology of the safe tourism sector, their division into groups according to abbreviation methods, as well as the ease of their use, as well as the occurrence of misunderstandings. In addition, the opinions of linguists regarding terminology and abbreviations are analyzed, opinions are summarized and conclusions are given.

Key words: Abbreviation, initial abbreviation, acronyms, term, terminology, multi-component words.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish hamda ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini kengaytirish maqsadida Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida sayyohlik faoliyati xavfsizligini samarali ta'minlash va sayyohlik xizmatlari ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish uchun Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23- noyabrdagi 939-son qaroriga qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq tashkil etilgan Ichki ishlar vazirligining Buxoro, Samarqand, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari ichki ishlar boshqarmalari tuzilmalarida xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmalari faoliyati tashkil etilib[11], ushbu soha xodimlariga xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirish bilan bir qatorda, sohada qo'llaniladigan terminologiyaning tadqiqini amalga oshirish ham muhim sanaladi. Terminologiyaning rivojlanishi biror bir soha taraqqiyotini aks ettirarkan, yangi terminlar lug'at fondini boyishi va umumxalq tilida faol ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Ingliz va o'zbek tillarida soha terminlari tadqiqi shuni ko'rsatdiki, to'plangan materillar ichida qisqartma shakldagi terminlar ancha faol. Ma'lumki, sohalarda abbreviaturalar (qisqartma terminlar)ning qo'llanilishi foydalanuvchilar uchun qulaylik tug'dirishi bilan bir qatorda, biroz tushunmovchiliklarni ham yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Xavfsiz turizmni ta'minlash sohasi terminlaridagi abbreviaturalarning tadqiqida tarjima usullarining 4 usuli qamrab olindi:

mamlakat tilining funksional xususiyatlarini inobatga olib tarjima qilish;

so'zma - so'z tarjima;

transkripsiya orqali, ya'ni original tilning asosiy manba sifatida olinishi;

neologizm yaratish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nishonovga ko'ra, "tilshunoslikda shunday til hodisalari mavjudki, ular apokopa, ellipsis, aferizis va sinkopa deb nomlanib, abbreviatsiyaga yaqin lingvistik universalialar hisoblanadi. Nazariy jihatdan chuqur tahlillar olib borilmaganligi sabab, abbreviatsiyaning obyekti hisoblanmaydigan birliklarni ham qisqartmalar deb nomlash ko'zga tashlanadi"[1]. Soha terminlariga oid qisqartmalar ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida kalkalash orqali amalga oshirilgan hamda ulardagi ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topgan terminlar qisqartirilgan va ular asosan ot so'z turkumiga mansubdir. Soha terminlarining ingliz tilidagi tahliliga ko'ra, abbreviatura va uning turlari hisoblangan akronimlar va initials abbreviaturalar keng foydalanilishi kuzatilgan bo'lsa, o'zbek tilidagi soha terminlarida esa abbreviaturalar va akronimlar ancha faol. Terminolog D.S. Lottening ta'biri bilan aytganda, terminlarning qisqaligi va lo'ndaligi unga qo'yilgan talablarning asosiysi hisoblanadi[2]. Ingliz terminologiyasi qisqartmalardan foydalanishni so'z yasashning qulay usuli sifatida targ'ib qilayotgan bir vaqtda, o'zbek terminologiyasida qarash butunlay boshqacha. A.Hojiyev abbreviaturaga nisbatan fikrini yoritib ekan, abbreviaturalar yangi so'zlarni yasash uchun xizmat qilmasligi, u shunchaki ko'p komponentli so'zlarning qisqartmasi ekanligi, ularni yoyish orqali yana o'sha so'z birikmasi paydo bo'lishini ta'kidlaydi[3]. Bizningcha, qisqartmalar orqali yangi so'z

yasalmas ekan, uni so'z yasovchi hodisa sifatida ta'kidlash noo'rin.

D.Mahkamovaga ko'ra, abbreviatura sifatida o'zlashtirilayotgan so'zlarning garchi kengaytirilga shakldagi variantlari bo'lsada, ularni boshqa so'zlarda qabul qilinishida tarjimalarsiz foydalanilayotganligi ham haqiqat. Bunga ingliz tilidan o'zlashgan PR terminini misol qilish mumkin[14].

Tahlil va natijalar. O'zbek va ingliz tillari soha terminologiyasida qo'llanilgan abbreviaturalar asosan quyidagi guruhlar orqali qisqartirilgan.

1. so'zdagi ma'lum bir qismning tushirib qoldirilishi orqali:

pol (police) – politsiya;
arr. (arrival/arrives) – yetib kelish;
bkg – booking (reservations; various companies) – buyurtma berish, oldindan band qilish;
PAx – (passenger) – yo'lovchi;
SITREP (situation report) – vaziyat bayoni;
MAJ (major) – mayor;
CIVPOL (civilian police) – fuqaro politsiyasi;
WARNORD (warning order) – ogohlantirish buyrug'i;

2. inisial abbreviaturalar (ikki va undan ortiq birikmali so'zlarning bosh harflarini alohida talaffuz qilish) orqali:

AGM – annual general meeting- yillik umumiy hisobot yig'ilishi;
TG (task group) – tezkor guruh;
RJ (road junction) – yo'l kesishmasi;
XO (executive officer) – shtab boshlig'i;
WTO (World Tourism Organization) – Jahon turizm tashkiloti;

SF (security force) – xavfsizlik kuchlari;
LTO (Local Tourism Organisation) – mahalliy turizm tashkiloti;

WTM (World Travel Market) – Jahon sayohat bozori;

3. akronimlar (abbreviaturaning bir turi bo'lib, ko'p komponentli so'zlarning bosh harflarini qo'shib, mustaqil leksema sifatida o'qilishi) orqali:

PA (public address system) – ovoz kuchaytiruvchi karnay;

APEX (Advanced Purchase Excursion) – oldindan sotib olingan arzon chipta;

AWOL (absence without leave) – xizmat joyini ruxsatsiz tark etish;

LOS / LoS (Length of Stay) – qolish muddati;

MICE (Meetings, Incentive Travel, Conventions and Exhibitions) – konferensiya, forum, kongress, ko'rgazma, seminar va anjumanlar (MICE) turizmi;

FAM (Familiarization Tour) – tanishuv sayohati;

FIT (Foreign Independent Traveler) – xorijiy mustaqil sayyoh;

WO (warning order) – ogohlantiruvchi buyrug';

INTERPOL (International Criminal Police Organization) – xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti;

OPLAN (operation plan) – operatsiya rejasi;

E-FIT (Electronic Facial Identification Technique) – yuzni elektron identifikatsiya qilish texnikasi;

AIM (Association of Independent Museum) – Mustaqil muzeylar uyushmasi;

OTA (Online travel agency) – onlayn sayohat agentligi;

SPINS (special instructions) – maxsus ko'rsatmalar;

SOG (special operations group) – maxsus operatsiyalar guruhi

4. aralash abbreviaturalar orqali:

C. –in – C. (Commander in chief) – Bosh qo'mondon;

TSOP (tactical standing operating procedure) – doimiy yo'riqnomasi;

PIO (public information officer) – ommaviy axborot vositalari xodimi;

PDS (personnel daily summary) – xodimlarning kundalik hisoboti;

OP (observation post) – kuzatuv posti;

OH (on-hand) – naqd pul;

IP (initial point) – boshlang'ich nuqta;

LTC (lieutenant-colonel) – podpolkovnik

LTG (lieutenant-general) – general leytenant

AIENT (International Association of Scientific Experts in Tourism) – Turizm bo'yicha xalqaro ilmiy ekspertlar assotsiatsiyasi;

ARR (average room rate) – o'rtacha xona narxi;

ATW (around the world) – dunyo bo'ylab;

B&B (bed and breakfast) – mehmon uylari va mehmonxonalarda taqdim etiladigan xizmat turi (tunashga joy va ertalabki ovqatni o'z ichiga oladi);

b/s (bags) – yuklar;

CTT (Council for Travel and Tourism) – Sayohat va turizm kengashi;

ITX (Inclusive tour fare) – Inklyuziv sayohat narxi;

IUOTO (International Union of Official Travel Organizations) – Rasmiy sayohat tashkilotlarining xalqaro ittifoqi

PG (paying guest) – ijarada yashovchi;

R & R (rest and recreation) – dam olish;

LZ (landing zone) – qo'nish joyi (zonasi);

TPA (Tourism Promotion Agency) – Turizmni rivojlantirish agentligi;

CRS (Computerised Reservation System) – Kompyuterlashtirilgan bron (band) qilish tizimi;

F&B (Food and Beverage) – oziq-ovqat va ichimliklar taklif qiluvchi xizmat turi;

NGO (Non-Government Organisation) – nodavlat tashkilot;

PS (Police Station) – Politsiya mahkamasi;

PO (Police Officer) – politsiya ofitseri;

SP (security police) – xavfsizlik politsiyasi;

STO (special technical operations) – maxsus texnik operatsiyalar;

WIA (wounded in action) – harakatda yaralangan;

LE (law enforcement) – huquqni muhofaza qilish;

LEA (law enforcement agency) – huquqni muhofaza qilish organi;

ES (emergency services) – favqulodda xizmatlar.

O'zbek tili soha terminologiyasi tadqiqiga ko'ra, abbreviaturalarning qo'llanilishi ingliz tiliga nisbatan ancha kam miqdorni tashkil etadi.

aparthotel – xonalarida uncha katta bo'lmagan oshxonasi ham bo'lgan mehmonxona;

botel – suzib yuruvchi mehmonxona;

ekotur – ekologik tur;

avialiniya – havo yo'llari;

agroturizm – agronomik turizm;

turagent – turizm agentligi;

turviza – turistlik viza;

turpaket – turistlik paket;

ekosafari – hayvon va baliq ovlarini amalga oshiruvchi turizm turi;

etnoturizm – etnografik turizm;

turbroker – turizm brokeri;

ekoturizm – ekologik turizm .

Solishtirilayotgan tillarning har ikkalasida ham bosh harflar yig'indisidan tashkil topgan abbreviaturalar ancha unumli qo'llanilib, ingliz tilida xarfning alohida talaffuz qilinishi xarflarni qo'shib o'qilishiga ko'ra ancha faol bo'lsa, o'zbek tilida esa so'zdagi ma'lum bir qismning tushirib qoldirilishi orqali yasalishi faol.

Xulosa. Soha terminologiyasida faol qo'llaniladigan abbreviaturalar tejamkorlik tamoyiliga asoslanadi. Shu sababli abbreviaturalarga mustaqil so'z sifatida emas, shunchaki

mustaqil so'zlardan iborat birikmalarning qisqartmasi sifatida qarash maqsadga muvofiq. Umuman olganda, abbreviaturalardan foydalanishning sababi tildan foydalanishda unumlilik va kommunikativ funksiyalar

samaradorligini oshirishga qaratilgan. Tahlil qilingan sohaga oid abbreviaturalar shuni ko'rsatdiki, ulardagi ko'p komponentli birikmalarda asos so'nggi termin ekanligi ma'lum bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол.фан. ном...дис. автореф. Т.: 2009. б.14
2. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. М., 1961. С.18.
3. А.Ҳожиев. Термин танлаш мезонлари. Тошкент.Фан, 1996, Б. 23-25. 160
4. Абдуазизов А.А. Тилшуносликка кириш. 2-қисм. Лексикология ва семасиология. Грамматика. Тошкент, 1999. 10 б.
5. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. 176 б.
6. Аликулов З.А. Аббревиатуры в узбекском языке: Автореф. ... дис. канд. филол. наук. Ташкент, 1976. 23 с.
7. Ахманова О.С. Терминология лингвистическая. Лингвистический энциклопедический словарь. 1990. Москва, С. 509.
8. Дониёров Р. Ўзбек лексикографиясининг муҳим бир масаласи хусусида. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1981. № 6 32-37 б.
9. Ханпира Э.И. О терминах и терминологии. Русский язык в национальной школе. М., 1985. №4. с. 11-18
10. Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик- семантик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дис. Тошкент, 2007.
11. “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI 23.11.2017 yildagi 939-son. Lex.uz
12. Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол.фан. ном...дис. автореф. –Т.: 2009. –Б.14
13. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. –М., 1961. – С.18.
14. Д. Маҳкамова Терминологик тизим модернизациялашуви